

**No'mon Rahimjonovning “Mustaqillik davri o'zbek she'riyati” asari asosida
Abdulla Oripov ijodini o'rganish**

Sharipova Lobar

Urganch davlat universiteti

1-bosqich magistr talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola shoir Abdulla Oripov ijodining adabiyotshunos No'mon Rahimjonovning “Mustaqillik davri o'zbek she'riyati” asaridagi tadqiqi asosiga qurilgan. Asardagi shoir ijodi bilan bog'liq o'rinlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: shoir, lirika, adabiyotshunos, munaqqid, vatan, tabiat, ona, ayol obraz

Abdulla Oripov XX asr o'zbek adabiyoti, xususan, she'riyatining yirik vakili, O'zbekiston Respublikasi madhiyasi muallifi. A.Oripovni biz tarjimon sifatida ham, shoir sifatida ham, faylasuf, adabiyotshunos olim sifatida ham yaxshi bilamiz. Ijodkor she'rlari ko'pgina she'riyat ixlosmandlari tomonidan sevib o'qilgan, chunki she'rlar oddiy xalq tilida yozilgan, she'rlarida faqat xalq dardini, qalb haqiqatini kuylagan, uning ijodini o'qigan inson unga bimalol tushunishi mumkin. Shoir lirikasi haqida shu kungacha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan, shu qatorda taniqli munaqqid, adabiyotshunos, Filologiya fanlari doktori, professor No'mon Rahimjonov ham o'zining 2007-yilda nashr etilgan “Mustaqillik davri o'zbek she'riyati” nomli kitobida ko'pgina fikrlarni bildiradi. “Abdulla Oripov lirikasida O'zbekiston – xalq – tabiat obrazlari uyg'unlikda ochiq bir kitobdek ko'z o'ngingda namoyon bo'ladi.”¹ No'mon Rahimjonov ta'kidlaganidek ijodkor she'rlari zamirida Vatan tushunchasi orqali xalq, jamiyat hayoti, tabiat tasviri – kuz faslidagi bargi-xazonlarning to'kilishi-yu, bahor faslidagi ko'klam nafasi, bularning barchasi shoir she'rlarida o'z ifodasini topadi. Munaqqid shoir asarlarini har tomonlama injalab o'rganar ekan, she'rdagi har bir so'zni chiroyli talqin va tadqiq qiladi. Darhaqiqat, Abdulla Oripov ijodida, sevgi, muhabbat, adolat, hijron, sog'inch,

¹ No'mon Rahimjonov. *Mustaqillik davri o'zbek she'riyati*. T., “Fan”, 2007, 39-bet.

kamtarlik, ezgulik kabi ko'plab mavzulardagi she'rlarni uchratishimiz mumkin. Masalan,

...Bandaga joizdur faqat kamtarlik,

Yo'l pastdan boshlanar kamolot tomon.²

misralarida ijodkorni insoniyatga murojaat qilib, ularni kamtarlik orqali ma'naviyat tomon chorlovini ko'rishimiz mumkin. Shoir yaxshilikka xizmat qiluvchi fazilatlarni o'z she'rlarida ulug'lab, nojoiz ishlarni qilishdan uzoqroq turish, har qadamda adolat, taqdir hukmi, insonni komil inson darajasiga eltuvchi xislatlarni go'zal bir jumla bilan qo'llaydi. So'z inson qalbini yoqquvchi, o'rtaguvchi, o'z o'rnida dardga davo, malham bo'luvchi, insonni kuldirtuvchi, kayfiyatini ko'tartuvchi yoki yig'latuvchi, inson his-tuyg'ularini qo'zg'atuvchi narsadir. Abdulla Oripov she'rlarini o'qish davomida yuqorida keltirilgan tuyg'ularni boshdan kechirmaslikning iloji yo'q. Chunki shoir she'rlari insonning ich-ichiga dovul tezligida kirib, yurakni har ko'yga soladi. Ijodkorning "Onajon" nomli she'rini o'qib, ko'zingga yosh olmaslikning iloji yo'q, chunki shoir bu she'rda onaning har qadamda farzandini o'ylashi, uning uchun qayg'urishi, farzandning onaga muhabbati judayam dardli kuylangan. Bu she'r butun dunyo onalariga farzandi tomonidan bitilgan dardli nomadir. Shoirning ushbu iztirobli onlari va uni shu vaziyatga solgan holatlar she'rlari orqali ifoda etilgan. Ijodkorning "Ayol" nomli she'ri ham bugunga qadar ko'zga yosh olib o'qiladigan she'rlar sirasiga kiradi. Bundan sal kam bir asr oldingi urush voqeasini, urushdan qaytmagan amakisi va uni sadoqat bilan kutgan ayol obrazlarini she'rida xuddi jonli voqeaday tasvirlaydi. Bu she'r faqat birgina inson taqdirini emas, XX asr o'rtalaridagi butun jamiyat insonlari hayotini aks ettirgan. Yuqorida Abdulla Oripovni faylasuf deb ham atadik, bunga sabab shoirning ellik hadisdan iborat "Haj daftari" asari edi. Abdulla Oripovni novator desak ham yanglishmaymiz, chunki u bu asari orqali adabiyotimizda yangilik yaratishga harakat qilgan. Alisher Navoiyning "Arbain" - qirq hadis asarini yangi voqelik asosida qaytadan yaratadi. Adabiyotshunos

² Shu manba. 63-bet.
pedagoglar.org

“Mustaqillik davri o'zbek she'riyati” asarida shoir ijodidagi bu asarga ham to'xtalib, asar haqida o'zining fikrlarini bayon etadi: “Haj daftari” turkumi shoir she'riyatidagi komil inson konsepsiyasining muhim yo'nalishini – falsafiy – axloqiy g'oyalarni o'zida mujassamlashtirishi bilan ham e'tiborli.”³ Shoir insonlarni komil inson darajasiga erishishdagi axloqiy-ta'limiy bosqichlarni asarda keltirilgan hadislar orqali ifoda etadi. Biz Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. ni komil inson sifatida bilamiz, komillik darajasiga erishish bu har bir mo'min musulmon uchun ezgu niyat hisoblanadi. Abdulla Oripovning diniy bilimda ham ancha yuqori ekanligini shu asar orqali bilib olishimiz mumkin. Asardagi “Uzlat”, “Savob”, “Payg'ambarimiz” nomli she'rlar “Haj daftari” uchun asosiy qism bo'lib xizmat qilgan. Bu asarni shoir Haj safariga borganda yoza boshlagan. Safardagi bir kechani bedor o'tkazib, bu asarni yozadi, shoirga baytlar o'z-o'zidan quyilib kela boshlaydi. Shu tariqa bu asar dunyoga keladi.

Ehrom kiyib olgan ikki musulmon
Bir-birin so'kishib choy talashardi.
Asli bilmasdilar, shu zum ikkovlon
Do'zaxning tubidan joy talashardi.

Adabiyotshunos Abdulla Oripov ijodini ilmiy tadqiq qilar ekan, shoirning har sohada yozilgan she'rlari orqali shoirning bilimini ham tahlil qilib boradi. Tadqiqotchi asarida “Shoir talqiniga ko'ra – inson umri, tirikligi – Haq jamoliga yetishish yo'li”,⁴ - deya ta'kidlaydi. Albatta, mumtoz adabiyotimizda Haqqa erishishda majoziy muhabbat haqiqiy muhabbatga erishish yo'lida ko'prik vazifasini o'taydi. Har qanday inson hayotidagi qiyinchiliklar bu komil insonni tarbiyalash yo'lidagi bosqichlardir. Inson har qadamda nafsini yengib borar ekan, komillik darajasi ham ilgarilab boraveradi. Shu sababdan ham bu hayot foniy ya'ni o'tkinchi dunyo, abadiy hayot bu insonning keying hayoti hisoblanadi, shuning uchun bu foniy dunyoda tariqat bosqichlarini bosib o'tish lozim. No'mon Rahimjonov Abdulla Oripov ijodidagi “Shayton” obrazini tahlil qilarkan, “Shayton”

³ No'mon Rahimjonov. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. T., “Fan”, 2007, 68-bet.

⁴ Shu manba. 72-bet.

obrazi ostida jamiyatdagi shaytonsifat insonlarni nazarda tutadi. Albatta, besh barmoq teng emas deb bejizga aytishmaydi, jamiyatimizda har xil fel-atvordagi insonlarni uchratishimiz mumkin. Shoir o'z ijodida bunday insonlarni ham chetda qoldirmagan holda “Shayton”, “Lo'ttibo'z”, “Adolat” kabi she'rlarni yozgan. Xususan, “Shayton” she'rida insonlar la'nat bilanmi yoki qarg'ish, qanday so'z bilan bo'lsa ham Shaytonning nomi aytilishi, Shayton insonlarni hech tark etmasligi, uning nayranglari haqida so'z yuritadi. She'rning so'nggi misralarida shoir shunday deydi:

Shodumon yo'l oldik Vatanga qarab,
Shayton qoldi, deya chuqurda-chohda.
Manzilga qaytgandik, Shayton, vo'ajab,
Bizni kutib oldi tayyoragohda.

No'mon Rahimjonov faqatgina imonning butunligi insondan Shaytonni o'zidan nari qilishning yo'li ekanligini ta'kidlaydi. Shoir ijodida yana bunga o'xshash she'rlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Tadqiqotchi Abdulla Oripov ijodini tahlil qilish davomida uning she'rlaridagi odamiylik, mehr-shafqat, kamtarlik va kamsuqumlik, insonlarning ezgu fazilatlarini bu mukammal insonni yaratishdagi yordamchi unsurlar deya hisoblaydi.

Dunyoda tiriklik emasdir oson,
Xudkashlik esa-chi, yomondan yomon.
Faqat Yaratganning ismin takror et,
Boshqa chora yo'qdir, yo'q o'zga imkon.

Munaqqid adabiyot, she'riyat haqida so'z yuritar ekan, bularni asarda chiroyli tashbehtar orqali keltiradi. Adabiyotni insonga o'xshatadi, “Uni to'la-to'kis anglash va tugal tushuntirish nihoyatda qiyin. Insonning tafakkur miqyoslari bamisoli osmon; ko'ngli esa xuddi ummon”⁵ deya fikr bildiradi. Darhaqiqat, adabiyot jamiyat bilan uzviy bog'liq, ikkalasi bir adabiy jarayon hisoblanadi. Ijodkor jamiyatdagi ro'y berayotgan voqea-hodisalarni adabiyotga olib kiradi.

⁵ No'mon Rahimjonov. *Mustaqillik davri o'zbek she'riyati*. T., “Fan”, 2007, 52-bet

Jamiyat bu kim? Albatta, jamiyat bu biz, atrofimizdagi insonlar. Adabiyot bizga har tomonlama ibrat bo'la oladigan, undan xulosa chiqarib hayotda tatbiq eta olishimiz mumkin bo'lgan hayotiy tajribalarni beradi. Shuning uchun ham adabiyot insonni odob-axloq qoidalari bo'yicha tarbiya qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qalami o'tkir adabiyotshunos No'mon Rahimjonov "Mustaqillik davri o'zbek she'riyati" asaridagi shoir Abdulla Oripov lirikasining tahlil va talqini bilan tanishdik. Asarda shoir she'riyatining inson qalbiga yaqinligi, tabiat tasvirlari, hayot chizgilari falsafiy yondashuvlar asosida ochib berilgan. Tanqidchi asarga qanday ruh bilan yondashsa, o'sha o'zi uchun kerakli narsani topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Rahimjonov. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. T: Fan, 2007
2. Qo'shjonov M. Onajonim she'riyat. T: O'qituvchi, 1994
3. Afoqova N. Abdulla Oripov falsafasi. T: Muharrir, 2021
4. Erkayev A. Abdulla Oripov dahosi. T: Oltin nashr, 2021